



THE ROLE OF THE FAMILY INSTITUTION IN FORMING LEGAL CULTURE IN YOUTH

Bahodir Nurillayevich Omonov

Head of the Department of Social Sciences

Shahrisabz State Pedagogical Institute

PhD in Philosophy (DSc), Professor

E-mail: bakhodiron@gmail.com

Shahrisabz, Uzbekistan

Islomova Mashhura

1st-year Master's student in "Methods of Teaching Social and Humanitarian Disciplines (Foundations of Spirituality)"

Shahrisabz State Pedagogical Institute

E-mail: mashhural1@gmail.com

Shahrisabz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: legal culture, legal awareness, youth education, family institution, legal socialization, legal education, civic responsibility.

Abstract: This article analyzes the socio-pedagogical role of the family institution in the process of forming the legal culture of youth on a scientific basis. The study explores the content of the concept of legal culture, its structural components, and the mechanisms of influence of family education on the development of legal awareness and legal behavior. The importance of the family as the primary socialization environment, the influence of parents' legal literacy and personal example on the legal culture of young people, is substantiated. It also reveals the pedagogical possibilities of cooperation between families and educational institutions in increasing the effectiveness of legal education.

Received: 17.04.26

Accepted: 18.04.26

Published: 19.04.26

YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILA INSTITUTINING ROLI

Bahodir Nurillayevich Omonov

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri

fal.f.d (DSc), professor

E-mail: bakhodiron@gmail.com

Shahrisabz, O'zbekiston

Mashhura Islomova

Shahrisabz davlat pedagogika institute Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Ma'naviyat asoslari) mutaxassiligi 1- kurs magistranti

E-mail: mashhura11@gmail.com

Shahrisabz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy ong, yoshlar tarbiyasi, oila instituti, huquqiy ijtimoiylashuv, huquqiy tarbiya, fuqarolik mas'uliyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida oila institutining ijtimoiy-pedagogik roli ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy madaniyat tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari hamda oilaviy tarbiyaning huquqiy ong va qonuniy xulq-atvorni rivojlantirishdagi ta'sir mexanizmlari yoritiladi. Oilaning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti sifatidagi ahamiyati, ota-onaning huquqiy savodxonligi va shaxsiy namunasining yoshlar huquqiy madaniyatiga ta'siri asoslab beriladi. Shuningdek, oila va ta'lim muassasalari hamkorligining huquqiy tarbiya samaradorligini oshirishdagi pedagogik imkoniyatlari ochib beriladi.

РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ИНСТИТУТА В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ**Баходир Нуриллаевич Омонов**

Заведующий кафедрой социальных наук

Шахрисабзский государственный педагогический институт

философских наук, доктор (DSc), профессор

E-mail: bakhodiron@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

Исломова Маишура

Магистрант 1-го курса по специальности

«Методика преподавания социально-гуманитарных дисциплин (основы духовности)»

Шахрисабзский государственный педагогический институт

E-mail: mashhura11@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Правовая культура, правовая осведомленность, образование молодежи, институт семьи, правовая социализация, юридическое образование, гражданская ответственность.

Аннотация: В данной статье на научной основе анализируется социально-педагогическая роль института семьи в процессе формирования правовой культуры молодежи. В исследовании рассматривается содержание концепции правовой культуры, ее структурные компоненты и механизмы влияния семейного воспитания на развитие

правового сознания и правового поведения. Обосновывается важность семьи как основной среды социализации, а также влияние правовой грамотности родителей и их личного примера на правовую культуру молодежи. Это также раскрывает педагогические возможности сотрудничества между семьями и образовательными учреждениями в повышении эффективности правового образования.

Kirish. Zamonaviy jamiyat rivojlanishining huquqiy-demokratik yo‘nalishi sharoitida yosh avlodda huquqiy madaniyatni shakllantirish davlat va jamiyat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Huquqiy madaniyat shaxsning huquqiy bilimlari, qonunlarga hurmat bilan munosabati hamda huquqiy me‘yorlarga muvofiq ijtimoiy xulq-atvorini belgilovchi muhim ijtimoiy-pedagogik ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu madaniyatning yetarli darajada shakllanmasligi jamiyatda huquqiy befarqlik, mas‘uliyatsizlik va ijtimoiy nizolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish masalasi nafaqat ta‘lim tizimi, balki shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv muhitini tashkil etuvchi oila instituti faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqilishi lozim.

Oila jamiyatning eng barqaror va fundamental ijtimoiy instituti sifatida shaxsda huquqiy ong va huquqiy qadriyatlarning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aynan oilada bola ilk bor ijtimoiy me‘yorlar, majburiyat va javobgarlik tushunchalari bilan tanishadi hamda huquqiy xulq-atvorning asosiy modelini o‘zlashtiradi. Ota-onaning huquqiy savodxonligi, hayotiy pozitsiyasi va kundalik xatti-harakatlari yoshlarning huquqqa bo‘lgan munosabatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishda oila institutining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, uning tarbiyaviy salohiyatini aniqlash va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Jumladan, Sh.M. Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – taraqqiyot va xalq farovonligining garovi” asarida huquqiy madaniyatni jamiyatda qonuniylikni ta‘minlash, fuqarolarning huquq va majburiyatlariga ongli munosabatini shakllantirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili sifatida asoslaydi [1]. Muallif huquqiy madaniyatni faqat huquqiy bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki shaxsning huquqqa nisbatan mas‘uliyatli munosabati va qonuniy xulq-atvorini belgilovchi ijtimoiy qadriyatlar tizimi sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvda yosh avlodni huquqiy tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanadi.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar (transformatsiya) yoshlarning ijtimoiy xulq-atvoriga, jumladan huquqiy me'yorlarni qabul qilish jarayoniga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etiladi [14].

Mazkur konseptual yondashuvni rivojlantirgan holda, A. Saidov va U. Tojixonov "Davlat va huquq nazariyasi" asarida huquqiy madaniyatni shaxsning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va huquqiy ong darajasini belgilovchi integral ko'rsatkich sifatida izohlaydilar [4]. Mualliflar huquqiy madaniyatning shakllanishi ijtimoiy tarbiya institutlari faoliyati bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlab, ayniqsa oila muhitining huquqiy ong va qonuniy xulq-atvorni barqaror rivojlantirishdagi roliga alohida e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, huquqiy madaniyatning barqarorligi shaxsning kundalik ijtimoiy tajribasi va tarbiyaviy muhit sifati bilan belgilanadi.

Pedagogik va sotsiologik yondashuvlar doirasida A. Giddens "Sociology" asarida oilani shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti sifatida talqin qilib, unda ijtimoiy me'yorlar, mas'uliyat va normativ xulq-atvorning dastlabki asoslari shakllanishini ilmiy asoslaydi [9]. Muallifning ta'kidlashicha, huquqiy qadriyatlar va qonunlarga munosabatning ilk modellari aynan oilaviy munosabatlar jarayonida shakllanib, keyingi ijtimoiy institutlar faoliyati uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuv oilaning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi tizimli ahamiyatini tasdiqlaydi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda oilaning tarbiyaviy muhit sifatidagi ichki mazmuni alohida tahlil qilinadi. Jumladan, G'.B. Shoumarov "Oila psixologiyasi" asarida oilani shaxsning axloqiy, ijtimoiy va huquqiy xulq-atvori shakllanadigan asosiy psixologik makon sifatida talqin qiladi [5]. Muallifning ta'kidlashicha, oiladagi emotsional iqlim, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar hamda tarbiya uslubi farzandlarda mas'uliyat, adolat va ijtimoiy me'yorlarga ongli munosabatning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuv yoshlar huquqiy madaniyatining rivojlanishi nafaqat huquqiy bilimlar, balki oiladagi sog'lom psixologik muhit bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini asoslaydi.

Mazkur g'oyalarni empirik jihatdan rivojlantirgan holda, A.V. Kandybina o'zining o'smirlar huquqiy savodxonligini shakllantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarida ota-onaning huquqiy savodxonligi va oiladagi tarbiyaviy muhit bolalarda huquqiy ong va qonunlarga hurmat hissini shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanligini asoslab beradi [6]. Muallif oiladagi huquqiy tarbiya izchil va tizimli bo'lgan sharoitda yoshlarning huquqiy xulq-atvori barqaror va ongli xarakter kasb etishini ta'kidlaydi.

Huquqiy tarbiyaning psixologik mexanizmlarini ochib berishda A. Banduraning "Social Learning Theory" asari muhim ilmiy ahamiyatga ega. Muallif shaxs xulq-atvori, jumladan

huquqiy xatti-harakatlar kuzatish va taqlid asosida shakllanishini asoslab, ota-onaning shaxsiy namunasi huquqiy madaniyatni rivojlantirishning muhim mexanizmi ekanligini ko'rsatadi [8]. Banduraning fikricha, huquqiy me'yorlarga rioya qilish haqidagi bilimlardan ko'ra, ushbu me'yorlarning kundalik hayotda namoyon bo'lishi yoshlar tomonidan tezroq va barqarorroq o'zlashtiriladi. Shu bilan birga, shaxs madaniyatining barqaror shakllanishi faqat ijtimoiy taqlid bilan emas, balki ichki qadriyatlar tizimining shakllanishi bilan ham bog'liq bo'lib, qadriyatlar asosida shakllangan yondashuv xulq-atvorning mustahkam qaror topishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi [11]. Tarbiyaviy jarayon orqali barqaror madaniy xulq-atvorni shakllantirish imkoniyati ekologik yo'nalishdagi tadqiqotlarda ham ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, bu holat huquqiy tarbiyada ham qadriyatga yo'naltirilgan yondashuvning samaradorligini metodologik jihatdan mustahkamlaydi [12].

Shuningdek, oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda alohida yo'nalish sifatida qaraladi. Jumladan, E.V. Kovaleva yoshlar huquqiy madaniyatida an'anaviy oilaviy qadriyatlarning o'rnini tahlil qilib, oila va ta'lim tizimi o'rtasidagi uzviy hamkorlik huquqiy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlovchi muhim pedagogik shart ekanligini ta'kidlaydi [7]. Muallif ota-onalar bilan olib boriladigan huquqiy-ma'rifiy ishlar oilaning tarbiyaviy salohiyatini oshirishga xizmat qilishini ilmiy dalillar bilan asoslaydi. Ta'lim tizimi shaxsda mas'uliyatli ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda muhim omil sifatida e'tirof etilib, uning tarbiyaviy ta'sirni kuchaytirishdagi ahamiyati ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan [13].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, unda oila instituti yetakchi va tizim hosil qiluvchi o'rin tutadi. Mavjud ilmiy tadqiqotlar oilaning huquqiy tarbiyadagi rolini keng yoritgan bo'lsa-da, mazkur masalani zamonaviy ijtimoiy sharoitlar va ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan holda chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa tadqiqot mavzusining ilmiy dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishda oila institutining ijtimoiy-pedagogik rolini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda tizimli va kompleks yondashuv metodologik asos sifatida tanlandi. Huquqiy madaniyat shaxs kamolotining muhim tarkibiy qismi sifatida pedagogik, huquqiy va ijtimoiy omillar uyg'unligida tahlil qilindi. Ushbu yondashuv oilaviy tarbiya muhiti, ota-onaning huquqiy savodxonligi hamda yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda yoritish imkonini berdi. Tadqiqotning nazariy qismida huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya masalalariga oid

ilmiy adabiyotlar, pedagogik konsepsiyalar va normativ-huquqiy manbalar tahlil qilinib, ularning umumlashtirilgan xulosalari shakllantirildi.

Tadqiqotning empirik bosqichida pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va suhbat metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida yoshlarning huquqiy ong darajasi hamda oiladagi tarbiyaviy muhitning huquqiy madaniyat shakllanishiga ta'siri aniqlashtirildi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil asosida qayta ishlanib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi ta'minlandi. Natijalarni talqin etish jarayonida umumlashtirish va pedagogik xulosalash metodlari qo'llanilib, oila institutining yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi yetakchi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishda oila institutining yetakchi va tizim hosil qiluvchi ijtimoiy-pedagogik omil ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Empirik ma'lumotlar tahlili yoshlarning huquqiy ong darajasi oiladagi tarbiyaviy muhit sifati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi [6]. Huquqiy qadriyatlar tizimi va qonuniy xulq-atvorning shakllanishida huquqiy me'yorlarga hurmat, mas'uliyat va adolat tamoyillarining ustuvorligi muhim determinant sifatida namoyon bo'ldi [9]. Xususan, huquqiy tarbiya izchil yo'lga qo'yilgan oilalarda voyaga yetgan yoshlarning huquqiy bilimlari tizimlilik kasb etib, ularning huquqiy qarashlari barqaror hamda xatti-harakatlari ongli xarakterga ega bo'lishi kuzatildi. Aksincha, oilaviy tarbiyada huquqiy komponentlar yetarli darajada aks etmagan sharoitlarda yoshlar orasida huquqiy befarqlik, normativ bilimlarning parchalanishi va huquqiy xulq-atvorda beqarorlik holatlari qayd etildi [4].

Tadqiqot natijalarining muhim jihatlaridan biri shundan iboratki, huquqiy madaniyat shakllanishi oiladagi bevosita (maqsadli tarbiya) va bilvosita (kundalik xulq namunalari) ta'sir mexanizmlarining uyg'unligi asosida amalga oshadi. Ota-onaning huquqiy bilim berishga qaratilgan bevosita ta'siri muhim bo'lsa-da, huquqiy me'yorlarga amal qilish, qonuniylik va fuqarolik mas'uliyatini kundalik hayotda namoyon etishga asoslangan bilvosita ta'sir mexanizmlarining ustuvorligi aniqlangan [8]. Bu holat madaniyatning barqaror shakllanishi tashqi nazoratdan ko'ra ichki qadriyatlarga tayanishi bilan izohlanadi [11]. Tarbiyaviy jarayon orqali barqaror xulq-atvorni shakllantirish imkoniyati boshqa yo'nalishdagi madaniyat shakllanishi jarayonlarida ham tasdiqlangan bo'lib, bu yondashuv huquqiy tarbiya uchun metodologik asos yaratadi [12].

Natijalar ota-onaning shaxsiy namunasini yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishning markaziy pedagogik omili sifatida talqin qilish imkonini berdi. Ota-onaning qonunlarga rioya etishi, huquq va majburiyatlar muvozanatini anglab yetishi hamda fuqarolik burchlarini ongli bajarishi yoshlar tomonidan ijtimoiy maqbul huquqiy xulq modeli sifatida qabul qilinishi

kuzatildi. Ushbu jarayon ijtimoiy o'rganish mexanizmlari bilan bir qatorda, qadriyatlar asosida shakllanadigan ichki motivatsiya orqali ham mustahkamlanishi aniqlangan [5].

Tahlil jarayonida oila va ta'lim muassasalari hamkorligining huquqiy madaniyat rivojiga ta'siri ham o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, oila va ta'lim tizimi o'rtasida izchil hamkorlik yo'lga qo'yilgan sharoitda huquqiy tarbiya uzluksizlik kasb etadi [7]. Ta'lim jarayoni shaxsda mas'uliyatli ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiluvchi qo'shimcha ijtimoiylashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lishi va oilaviy tarbiya samaradorligini kuchaytirishi boshqa tadqiqotlarda ham qayd etilgan [13]. Bu holat huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonining integrativ xarakterga ega ekanligini, ya'ni oila, ta'lim va keng ijtimoiy muhit o'rtasidagi uzviy aloqadorlik orqali rivojlanishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar va globallashuv sharoitida qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar yoshlarning huquqiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishi ham aniqlangan [14]. Bu esa oilaning tarbiyaviy rolini yanada muhimlashtirib, huquqiy madaniyatni shakllantirishda uning strategik ijtimoiy institut sifatidagi o'rnini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishda oila institutining tarbiyaviy salohiyatidan tizimli va maqsadli foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Olingan xulosalar nafaqat nazariy yondashuvlarni boyitadi, balki amaliy pedagogik faoliyatni takomillashtirish uchun ham muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida oila institutining yetakchi ijtimoiy-pedagogik omil ekanligini nazariy va empirik jihatdan asoslab berdi. Huquqiy madaniyat shaxsda huquqiy bilimlar, huquqiy ong va qonuniy xulq-atvorning uzviy birligi sifatida shakllanishi aniqlanib, bu jarayon bevosita oiladagi tarbiyaviy muhit sifati, ota-onaning huquqiy savodxonligi hamda huquqqa bo'lgan munosabati bilan chambarchas bog'liq ekani tasdiqlandi. Oilada huquqiy qadriyatlarning izchil shakllanishi yoshlarning huquqiy qarashlari barqarorligini ta'minlab, ularning huquqiy xatti-harakatlarining ongli va ijtimoiy maqbul xarakter kasb etishiga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari huquqiy madaniyatni shakllantirishda ota-onaning shaxsiy namunasiga asoslangan bilvosita tarbiyaviy mexanizmlarning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzviy hamkorlik huquqiy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlab, yoshlarning huquqiy bilimlarini amaliy xulq-atvorga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Umuman olganda, zamonaviy ijtimoiy sharoitlarda yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarda oila institutining tarbiyaviy salohiyatidan tizimli va maqsadli foydalanish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - taraqqiyot va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 464 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida. - lex.uz, 2019.
4. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. - Toshkent: Adolat, 2001.
5. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. - Toshkent: Sharq, 2011. - 296 b.
6. Кандыбина А. В. Роль семьи в формировании правовой грамотности подростков. - Волгоград, 2022.
7. Ковалева Е. В. Традиционные семейные ценности в правовой культуре молодежи // Правовое государство: теория и практика. - 2024. - № 2. - С. 18-22. - DOI: 10.24412/2411-2275-2024-2-18-22.
8. Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
9. Giddens A. Sociology. - Cambridge: Polity Press, 2013.
10. Ramazonov, J., & Nurmammedova, M. . (2025). Psychological Features Of The Development Of The Family Institute. Журнал Академических Исследований Нового Узбекистана, 2(3. Part 2), 86–88.
11. Nurillaevich O.B. The importance of religious values in the formation of a personal ecology culture // Archive of Conferences. - 2021. - Vol. 15. - No. 1.
12. Omonov, Bahodir. "Ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning o'rni." Modern Science And Research 4.3 (2025): 125-128.
13. Mukhtarovna, Umurzakova Nargisakhon, et al. "The impact of education in environmental protection for sustainable development." Procedia of Environmental Science, Engineering and Management 12 (2025): 133-139.
14. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." Journal of Survey in Fisheries Sciences 10.1S (2023): 5000-5006.